

*Hafiza Salyahova,
jurnalist*

Qishloqlar qiyofasiga monand odamlar dunyoqarashi ham o'zgarib bormoqda

Ha, bugungi kunda hayotdan rozi bo'lib, ertangi kunga ishonch bilan yashash uchun mamlakatimiz rahbari boshchiligidagi barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoxda. Qonunlar, o'z haq-huquqlaridan boxabar inson o'zi uchun ham, xalqi uchun ham ko'p xayrli ishlarga bel bog'lab, mehnatidan baraka topyapti. Baxtli umr kechirayotganlar safi kengayib bormoqda. Bu davlatimizning ichki va tashqi siyosati sharofati, samarasи, albatta.

Bunyodjon Roziqov boshliq Farg'on'a viloyati Oltiariq tuman telekommunikatsiya bog'lamasi jamoasi ham odamlar tur mush sifati va dunyoqarashi o'zgarishi yo'lida astoydil mehnat qilmoqdalar. Xususan, «Obod qishloq» dasturi asosida Polosonda 4 ta, Tinchlik va Qapchug'ayda 3 tadan MFY'larda amalga oshirilgan xayrli ishlarda Oltiariq tuman telekommunikatsiya bog'lamasi mutaxassis-xodimlari ham kamtarona hissalarini qo'shdilar.

Mazkur qishloqlar tanib bo'lmas darajada yangicha qiyofa kasb etishida, hashar tadbirlarida barcha korxona va tashkilotlar a'zolaridan qolishmay, mehnat qildilar. Qishloqlar qiyofasi kun sayin o'zarib bormoqda. Shunga monand odamlar dunyoqarashi ham butunlay o'zgarib bormoqda.

Farg'on'a viloyati Oltiariq tuman telekommunikatsiya bog'lamasi rahbarligini ham, dehqonchiligini ham do'ndiradigan rahbar sifatida e'tirof qozonayotgan Bunyodjon o'n besh yillik faoliyat mobaynida filialning barcha jabhalari qozonida qaynab, zahmatlarini totib ko'rgani yaxshi bo'lgan ekan. «Obod qishloq» dasturi doirasidagi ishlar unga yana bir sinov bo'ldi va u bu «imtihon» dan yorug' yuz bilan o'ta oldi. Bir so'z bilan aytganda, toblandi.

«Dastur ishlariiga biz, aloqachilar qo'shgan bissa daryodan bir tombi, xolos», — deydi u kamtarlik bilan, vaxolangki, filial jamoasi a'zolari dastur bo'yicha sal kam bir yarim oy tinmay ishlashganidan o'zim ham xabardorman. Oz fursatlarda tuman markazidan Qapchug'aygacha 7 kmli optik tolali kabel yotqizildi. Maktabgacha ta'lim muassasalari, profilaktika inspektorlari xonalari va boshqa qator korxona va tashkilotlar internetga ulandi. Axborot xizmatlaridan foydalanan imkoniyatlari yaratildi hamda murojaatlар o'sha kunning o'zidayoq hal etib kelimoqda.

Bu ishlarda kabel kavsharlovchi Ibrohim Turg'unov, liniya montyori Behzod Badirov, liniya muhandisi Oybek To'ychiyev hamda haydovchi Muhiddin Misiraliyevlarning xizmatlari, ayniqsa, tahsinga sazovor bo'ldi. «Yagona oyna» menejeri Eminjon Umarov, bog'lanma mutaxassislari Masohat Mahmudova, Dilbaroy Shokirova, Ro'zmation Komilov, Zuhra va Robiya Dadajonovalar hamda Malikaxon Roziqova kabilar ismu-shariflarini mammuniyat bilan tilga olish joiz. Ularning tezkorlik va sifatli ishlashlari o'sha jazirama issiq kunlarda yana bir marta o'z bahosini oldi.

Shuni mammuniyat bilan aytish kerakki, tuman TB jamoasi uchun 2018-yil nihoyatda omadli keldi. Yil boshida bor-yo'gi 48 portli DSLAM bor edi. Bahor fasli oylarida 128 raqamli 2 ta, ko'p o'tmay 196 portli emsa mini-MSAN qurilmalari, 24 portli SWITCH qurilmalari o'rnatildi. Ayni kunda 1648 ta port mayjud. 2382 ta mijozni internetga ularash imkoniyati yaratildi. Jami mijozlar 1150 nafarni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich yil boshida 750 nafar edi, xolos.

— Qisqa fursatlarda 1300 raqam yaratishga bel bog'laganmiz, — deydi bog'lama bosh muhandisi Dadaxon Rashidov. — barchamiz, ayniqsa, tijorat agentlarimiz aboli imkoniyatlari teran o'rgangan bolda mijozlarni ko'paytirib borishga muvaffaq bo'limoqdamiz. Daromad rejalarini ham osbirib ado etmoqdamiz. Bo'rbonliq, Povul'gon, Poloson, Azimobod qishloqlarida yashovchilarning ebtijoylarini qondirish yuzasidan belgilangan ishlar bajarilmoxda. Markazdan olisroqda bo'lgan Oqbo'yra va Qiziltepa qishloqlari abolisiga O'zmobayl xizmatlarini taklif etmoqdalar. Xullas, yutuqlarimiz talaygina. Biroq zudlik bilan amalga osbirilishini kutayotgan vazifalarimiz ham juda ko'p. Odamlar «O'zbektelekom» AK Farg'on'a filiali xizmatlaridan rozi bo'lisblari uchun har qancha bo'lsin, halol va tezkor xizmatlarga tayyormiz.

Global zamон talablari asosida ishslash ko'nikmalarini hosil etayotgan oltiariqlik telekomchilar ibratiga havasingiz keladi. Ular elga sidqidildan xizmat qilish, mashaqqatlardan qo'rmaslik, shijoat nimalarga qodirligini namoyish eta oldilar. Ular misolida ham juda oz fursatlarda tahsinlarga arzigelik yumushlarni bajarish mumkinligi yaqqol namoyon bo'ldi.

Ha, xalqimizga bunday egzuliklarga g'ayrat qilish odatiy hol bo'lib qolgan. Telekommunikatsiya sohasi xodimlari davrdan ortda qolmay, hatto bir qadam ilgarilab borayotganligi rost va shunday bo'lishi ham shart. Elektron ta'lim, tibbiyot, tijorat va qo'yingki, barcha sohalar yuk-sak darajalarga yetkazilishi uchun ham avvalo, telekomchilar mas'ul va buni bir daqqa ham unutmaydilar. Buni Oltiariq tuman telekommunikatsiya bog'lamasi xodimlarining munosib faoliyati misolida ko'rib turibmiz.

Oltiariqlik azamatlar, el xizmatini bajarishda hormang, hech kam bo'lmang, deymiz!